UDK: 37.048:331.548

O‘QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO‘NALTIRISHNING METODIK VA DIDAKTIK ASOSLARI

Diyorova Feruza Umbarovna,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
“Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda mamlakatimizda o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirishning dolzarb masala sifatidagi ahamiyati, ushbu jarayonni boshlang‘ich sinflardanoq tashkil etish zarurati hamda o‘quvchilarda kasbiy qiziqishlarni shakllantirishning samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarni ongli va to‘g‘ri kasb tanlashga tayyorlashda foydalanish mumkin bo‘lgan metodik tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, kasb-hunar, ta’lim-tarbiya, dars, islohot, kasbiy qiziqish, individual xususiyatlar, kasbga yo‘naltirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kasbiy qiziqishlarni erta aniqlash va ularni rivojlantirishga ko‘maklashish boshlang‘ich ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagoglar oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining “Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi”, degan fikrlarida ham katta mazmun mujassam. O‘quvchilarda kasb tanlash motivlarini shakllantirish va ularni to‘g‘ri kasb tanlashda qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning kasbiy qiziqish va moyilliklarini shakllantirish pedagogdan alohida diqqat, e’tibor va kuzatuvchanlikni talab qiladi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar har bir kishida chuqur va mustahkam bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat, erkin fikrlash, ijodkorlik, vatanparvarlik va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Islohotlarni hayotga tatbiq etish ko‘p jihatdan o‘quv-tarbiya mazmunini takomillashtirish, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini bilish hamda har bir yosh davrida bolalar bilan olib boriladigan pedagogik-psixologik jarayonlarning o‘ziga xos jihatlarini chuqur anglaydigan mutaxassislarga bog‘liq. Kasbiy faoliyat bilan bog‘liq har qanday masala mutaxassisning kasbiy mahorati, texnik bilim va ko‘nikmalarni qay darajada egallagani hamda o‘z kasbiga bo‘lgan munosabati bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifa sifatida kasbga yo‘naltirish

ishlarining mazmuni va sifatini takomillashtirish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu vazifaning uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘rni “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va qabul qilingan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ham o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, shaxs rivojlanishini tadqiq qilishda tizimlilik, integrallik, shaxs va faoliyat birligi nazariyasi, determinizm tamoyillari asosida yondashish, mamlakatimiz va xorijda kasbga yo‘naltirish masalalarini yorituvchi pedagogik-psixologik tadqiqotlar hamda Sharq allomalarining falsafiy-pedagogik g‘oyalari o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning nazariy-metodologik asoslarini tashkil etadi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining asosiy maqsadi, eng avvalo, shaxsga o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini to‘liq anglash, xohish-istaklarini amalga oshirish, maqsadga erishish vositalarini to‘g‘ri belgilash hamda mustaqil qaror qabul qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Kasbga yo‘naltirishning asosiy maqsadi o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo‘lib, bu jarayon shaxsning bo‘lajak kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashishiga ko‘maklashadi.

Zero, bolaning qiziqish va qobiliyatlari asosida to‘g‘ri tanlangan kasb kelajakda malakali va yetuk mutaxassislarning yetishib chiqishiga zamin yaratadi. Bu esa bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimini isloh qilish jarayonidagi eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Kasbga yo‘naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashini ta’minlovchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bunda har bir shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish, shuningdek, mehnat bozori ehtiyojlari va mamlakat iqtisodiyoti manfaatlaridan kelib chiqish zarur. Hayotda turli kasblar mavjud. Bir inson bir nechta kasbni egallashi mumkin, biroq har bir kasb shu qadar murakkabki, inson o‘z hayotini, asosan, bitta kasbiy faoliyatga bag‘ishlashi mumkin. Shu asosda kasb tanlash muammosi yuzaga keladi. Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini bola tarbiyasining dastlabki bosqichlaridan, ya’ni uning atrof-muhitni anglay boshlagan davridan tashkil etish maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarni erta yoshdan kasb-hunarga yo‘naltirish umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya ishlari bilan uzviy bog‘liq holda olib boriladigan uzluksiz jarayondir. Boshlang‘ich sinflarda kasbga yo‘naltirish ishlari dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Bunda o‘quvchilarni turli kasb turlari bilan tanishtirish, o‘yinlar orqali ularda kasblarga bo‘lgan dastlabki qiziqishlarni aniqlash, shuningdek, ko‘rgan va eshitgan ma’lumotlarini eslab qolish hamda qayta tiklash, umumiy o‘quv, mehnat va kommunikativ malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

2–4-sinflarda o‘quvchilarning idrok etish qobiliyati ancha rivojlanadi. Agar 1-sinf o‘quvchilari ayrim harf va sonlarni adashtirsalar, 2–4-sinflarda bunday xatolar kamayadi. Ushbu sinf o‘quvchilari predmetlarning nafaqat nomini aytish, balki ularni ta’riflash, tarkibiy qismlari, inson hayotidagi vazifasi va ahamiyatini tushuntirib berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli rasm asosida hikoya tuzish, ko‘rganlarini so‘z bilan tasvirlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhimdir. Bolalarni rasmda sodir bo‘layotgan voqealarni tushuntirish va baholash, kuzatilayotgan predmet hamda hodisalar o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni aniqlash, ularni o‘zaro taqqoslash va o‘z nuqtayi nazarini asoslashga o‘rgatish lozim. Keyingi yosh davrlarida bu tayyorgarlik turli faoliyatlar orqali davom ettiriladi. Natijada bolada “Men kim bo‘laman?” degan savolga javob izlash ehtiyoji shakllanadi.

Bolalarda ma’lum bir sohaga qiziqish namoyon bo‘lganda, ushbu qiziqishni yanada rivojlantirish zarur. Buning uchun ularni mazkur sohaga chuqurroq qiziqtirish, sohaga oid kitoblar, qo‘llanmalar va asbob-uskunalar bilan tanishtirish, kasbning ahamiyati, jamiyatdagi o‘rni hamda shu soha vakillari haqida batafsil ma’lumot berib borish foydalidir. Kasbga yo‘naltirish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda turli psixologik o‘yinlardan foydalanish lozim.

Masalan, sezgi va idrokni rivojlantiruvchi “Sehrli xaltacha” o‘yini shular jumlasidandir. Xaltachaga turli kasblar bilan bog‘liq predmetlar solinadi. O‘quvchi xaltachaning ichiga qaramasdan, predmetni qo‘li bilan ushlab ko‘radi va uning nomini hamda qaysi kasbga tegishli ekanini aniqlaydi. Bu yoshda bolalar ko‘pincha o‘ylamasdan, shoshilinch harakat qiladilar va qo‘yilgan maqsadga erishishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli ularda mustaqil fikrlash va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

Boshlang‘ich sinflarda “Harakatlarga qarab kasbni aniqlang”, “Bu kasb bilan bog‘liq harfga imkon qadar ko‘proq so‘z ayting”, “Ushbu kasbga tegishli mehnat qurollarini kartochkalar orasidan tanlang” kabi o‘yinlarni tashkil etish mumkin. Matematika darsida “Do‘kon”, o‘qish darsida “Kutubxona”, tabiatshunoslik darsida esa “Ekskursovod-gid” kabi rolli o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning kasbiy tasavvurlarini kengaytiradi.

To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayonining o‘ziyoq o‘quvchilarda qiziqishlarni shakllantiradi. O‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish va uni barqaror saqlash ko‘p jihatdan o‘qituvchiga bog‘liq. Buning uchun darslar emotsional, yorqin va jonli tashkil etilishi, o‘quvchilarga beriladigan materiallar amaliyot bilan bog‘lanishi lozim. Shuningdek, o‘quvchilar o‘rganayotgan fanlarning hayotning turli sohalaridagi o‘rni, kelajakda kasb egallash va bilimlarini oshirishdagi ahamiyatini anglab yetishlari muhimdir.

O‘quvchilarda fanga qiziqish uyg‘otish va uning barqarorligini ta’minlashda o‘qituvchining o‘z faniga bo‘lgan munosabati katta rol o‘ynaydi. Agar o‘qituvchi o‘z

fanini sevsa va unga qiziqish bilan yondashsa, o‘quvchilarda ham shu fanga nisbatan barqaror qiziqish va havas paydo bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchining ongli ravishda kasb tanlashiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri uning individual-tipologik xususiyatlari, ichki imkoniyatlari va ehtiyojlari hisoblanadi.

Ma’lumki, ichki pozitsiya o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, balki subyektning tashqi muhit bilan uzluksiz aloqasi va tashqi muhitning unga ta’siri jarayonida tarkib topadi. Ana shu ikki tomonlama ta’sir hamda ijtimoiy munosabatlar jarayonida inson o‘zligini izlaydi va anglaydi. Ta’lim muassasalarida beriladigan ta’lim-tarbiya o‘quvchining turli fanlarga nisbatan tanlovli munosabatini shakllantiradi. Ayrim o‘quvchilarda muayyan fanlarga, tasviriy san’at, musiqa, sport va badiiy ijod kabi sohalarga bo‘lgan qiziqishlar erta namoyon bo‘ladi.

Kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samarali usullarini amaliyotga joriy etishda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularni faol ijtimoiy hayotga tayyorlash, qiziqishlari, jismoniy va aqliy imkoniyatlari hamda mehnat bozoridagi kasblarga bo‘lgan ehtiyojlarni inobatga olish muhimdir. O‘quvchilarni uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish usullaridan biri kasbiy tashxis metodikalari yordamida ularning kasbiy yo‘nalganligini aniqlashdir.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar kasb tanlash haqida hali aniq tasavvurga ega bo‘lmaganliklari sababli ayrim xatolarga yo‘l qo‘yishlari mumkin. Ular tanlagan yoki tanlashi lozim bo‘lgan kasb qanday shaxsiy fazilatlarni talab qilishini to‘liq anglab yetmaydilar. Shuningdek, o‘z layoqatlarini oqilona baholash, muayyan kasbni egallash uchun zarur bo‘lgan tezlik, aniqlik, sezgi va idrok xususiyatlari hamda asab tizimining imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashda qiynaladilar. Bunday holatlarning oldini olish uchun quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

Kasblarni o‘rgatish metodlarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va aniq, tushunarli shaklda ifodalash.

O‘qituvchilar tomonidan kasb-hunarlar yuzasidan targ‘ibot ishlarini olib borish, o‘quvchilar bilan kasbga doir individual maslahatlar tashkil etish, shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikda kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirish.

Yoshlarni kasblarning asosiy guruhlari bilan yaqindan tanishtirish, muayyan kasb talab qiladigan fiziologik va psixologik xususiyatlar hamda kasbni egallash yo‘llari haqida ma’lumot berish.

Dars jarayonida o‘quvchilarda dastlabki kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va kasblarga nisbatan mehr-muhabbat uyg‘otish.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni kasb-hunar tanlashga ongli ravishda tayyorlash samaradorligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri kasbga yo‘naltirish jarayonida interfaol psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va kasbiy psixologik-pedagogik tashxisning uzluksizligini ta’minlashdir. Kasbiy psixologik-

pedagogik tashxis faqat bir yoki ikkita metodikani qo‘llash bilan cheklanmasligi, balki kasblar to‘g‘risida ma’lumot berish va kasbiy maslahat ishlari bilan uyg‘unlashgan, korreksion-rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lgan uzluksiz jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Ana shundagina o‘quvchilarning kasb tanlashga bo‘lgan ongli munosabatini shakllantirish va yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev R.H. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish tizimining shakllanishi va rivojlanishidagi muammolar. // Uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: O‘zPFITI, 2003.
2. Haydarov I.O. va boshqalar. Uzluksiz kasb-hunarga yo‘naltirish usullari. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2013.
3. G‘oziyev E.G‘., Mamedov K.K. Kasb psixologiyasi. – Toshkent, 2003.
4. www.pedagog.uz